



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/1 (10)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмуратов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайруллаевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акmal Xolmatovich – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Dilobar Batirovna – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Bakhodir Khamidovich – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Azamat Khamidovich – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli – доктор психологических наук.

Turakulov Ulugbek Holbutayevich – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Xolmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Иосифовна,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

MENEJMENT

Abdullajanova D.S. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari	4
--	---

SOTSILOGIYA

Saipova M. Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar	10
Xonturayev B. Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari	16
Йулдошева У. Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане	25
Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari	32

MAHALLA VA HAYOT

Isamutdinov R.R. Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati	37
--	----

OILA VA JAMIYAT

Abdiraimova Sh.A. Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....	44
Rahimova M. Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi	49
Dovranova O.D. Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish.....	53
Mahkamov U.A. So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....	58

PSIXOLOGIYA

Рахимова И.И., Каримова Г.О. Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха	64
Абидова З.А. Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности	69
Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	75
Raxmonova Z.N. Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....	80

PEDAGOGIKA

Ortikov U.X. The socio-educational model in second language acquisition.....	86
Yulchiyeva D.X. Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat	92
Аблакулов Ш.Д. Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов	98
Mirhamidova M. Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari	104
Safoyeva R.J. Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....	109
Yakubov O.T. Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari	114

TARIX

Sharipova N.A. XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi.....	118
--	-----



Hashimova Gulsina Ismoilovna,
Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasи
katta o'qituvchisi
email: ismoilovnagulihonim@gmail.com

HARBIY XIZMATCHILAR VA ULARNING OILA A'ZOLARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA KAFOLATLARI

Annotation. Ushbu maqolada harbiy ijtimoiy ishning huquqiy asoslari, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning faol shakllari hamda ijtimoiy huquqlarining asosiy kafolatlari olib berilgan. "Kafolatlar" tushunchasi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan obyektiv va subyektiv omillar, shartlar va vositalarning yig'indisi sisfatiada tavsiflanadi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy huquq, huquqiy normalar, harbiy soha, ijtimoiy himoya, kafolat, huquqiy normalar, imtiyozlar, ijtimoiy kafolatlari, kompensatsiya, huquqiy asos.

Аннотация. В данной статье раскрываются правовые основы военно-социальной работы, активные формы социальной и правовой защиты военнослужащих, основные гарантии их социальных прав. Понятие «гарантии» определяется как совокупность объективных и субъективных факторов, условий и инструментов, направленных на реализацию социальных прав военнослужащих и членов их семей.

Ключевые слова: социальное право, правовые нормы, военная сфера, социальная защита, гарантии, правовые нормы, льготы, социальные гарантии, компенсация, правовая основа.

Annotation. This article reveals the legal basis of military social work, active forms of social and legal protection of military personnel, and basic guarantees of their social rights. The concept of «guarantees» is defined as a set of objective and subjective factors, conditions and tools aimed at realizing the social rights of military personnel and their family members.

Key words: social law, legal norms, military sphere, social protection, guarantee, legal norms, benefits, social guarantees, compensation, legal basis.

Kirish. Dunyoda mamlakat mudofaasining kasosiy ko'rsatkichi haqiqiy vatanparvar, ma'nan yetuk, tajribasi va bilimini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirish, harbiy sanoatning to'g'ri strategiyasi, zamonaviy qurol va texnikalar ishlab chiqarish bilan izohlanadi. Shuning uchun hozirgi sharoitda barcha mamlakatlar harbiy sohani rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratmoqda.

Maqsad va asoslash. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng harbiy

ijtimoiy ishni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, mamlakatimizda samarali ijtimoiy himoya, aholining turli qatlamlarini, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ishni rivojlantirish va tahlil qilish muhim vazifalardan biriga aylandi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish va tarbiyalashning falsafiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlari S.Y.Ahrorov, I.Y.Inoyatov, A.T.Zamonov, I.S.Saifnazarov, R.Y.Qurbanov, R.S.Samarov, K.X.Usmonov,

N.J.Eshnayev, B.T.To'ychiyev, U.S.Temirova, Z.Sh.Alimardonov, A.K.Redjaboyev kabi faylasuf, huquqshunos, sotsiolog olimlar tomonidan tadqiq etildi. Jumladan, R.Y.Qurbanovning "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasining o'rni" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida Qurolli Kuchlar tarkibida amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar va harbiy vatanparvarlik masalalari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, vatanparvarlik tarbiyasi va ijtimoiy masalalar tadqiq etilgan. N.J.Eshnayevning "O'zbekiston Respublikasi professional harbiy kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari" nomli dissertatsiya ishida professional harbiy kadrlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy tanlov va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning ahamiyati, professional harbiy kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari olib berilgan¹.

Rus harbiy nazariyotchilari O.A.Chernitskiy "Rus ofitserining kasbiy madaniyati: ijtimoiy-falsafiy tahlili" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida "harbiylik kasbining o'ziga xos tomonlarini, vazifa va burchlarini" tahlillar asosida yoritib bergen. V.N.Grebenkov esa "Jamiyat harbiy madaniyatining madaniy konsepsiysi" nomli dissertatsiya ishida harbiy madaniyat va ijtimoiy ishni falsafiy tahlil qilgan.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasini tashkil etish va armiya faoliyatining huquqiy mezonlarini ishlab chiqish davlat siyosatining bosh vazifalaridan biri sifatida belgilanishi nuqtayi nazardan bugungi kunda milliy armiyamizni isloh qilish, ma'nан yetuk kadrlar tayyorlashga yetarlicha e'tibor qaratilmoqda. Juhon va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat beqaror, murakkab va ziddiyatl bo'lib turgan hozirgi sharoitda hushyorlik va jangovar shaylikni oshirish masalasi mamlakatimiz Qurolli Kuchlari uchun juda muhim. Ayni paytda, milliy armiyamiz jangchisi ona Vatanni chin qalbdan sevib ardoqlash bilan birga, uni har qanday g'anidman har qanday sharoitda ishonchli himoya qila olishni ham uddalashi shart. Buning uchun u harb ilmini puxta egallashi, jangovar texnika va qurol-yarog'lardan mohirona foydalana olishi, tartib-intizom, axloq-odob, o'zaro ko'makdoshlik

singari ko'plab sifatlarni o'zida jamlagan bo'lishi, eng muhimi, aqliy salohiyati keng, ma'nан yetuk, harbiy faoliyatda yuqori madaniyatga ega bo'lishi lozim. Chunki harbiy madaniyat va harbiy ijtimoiy ish davlatning suverenitetini, mamlakatning milliy xavfsizligini himoya qilish uchun yaratilgan maxsus institutlar to'plami sifatida muayyan xalq madaniyati namunasi bo'lib, o'z navbatida, ularning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy armiyamiz harbiy madaniyatining o'sish darajasi, ya'ni dinamikasi jamiyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, sivilizatsion rivojlanishi va mamlakat modernizatsiyasiga uzviy bog'liqligi bilan izohlanadi. Bu esa milliy turmush tarzi, millatning dunyoqarashidan kelib chiqadi. Milliy armiyamiz faoliyatida olib borilayotgan islohotlar, harbiy madaniyatning ijtimoiy xususiyatlari, uning jamiyatda tutgan o'rni, harbiy ijtimoiy ishni rivojlantirishning ahamiyatini chuqur tahlil qilish, ma'lumotlarni fuqarolar, shuningdek, yoshlar ongiga singdirib borish ularni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Shunday ekan, hozirgi sharoitda respublikamizda harbiy ijtimoiy sohasning funksiyalarini, uning mazmun-mohiyatini kengroq o'rganib, harbiy madaniyat takomillashishiga oid omillar va ularni rivojlanish usullarini ishlab chiqib, amalga oshirish mumkin bo'lgan mexanizmlariga e'tibor qaratish lozim.

Harbiy ijtimoiy ish qo'shinlarning jangovar faoliyatini ma'naviy va psixologik qo'llab-quvvatlashning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, Qurolli Kuchlarning ijtimoiy-huquqiy rejimini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavslifi va yechimi. Zamonaviy sharoitda tinch aholi va harbiy xizmatchilarni harbiy sohada olib borilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishtirish, ularning harbiy sohaga oid bilimlari va tasavvurlarini kengaytirish harbiy ijtimoiy ishni rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda jamiyatning zamonaviy harbiy tashkilotlarida, inson faoliyatining kognitiv, hissiy va ixtiyoriy sohalariga katta talablar qo'yilmoqda. "Bugun jahon maydonida ma'naviy salohiyat, aql-zakovat musobaqasi, insonlar ongiga hukmron bo'lish uchun keskin kurashlar avj pallaga kirgan. Hech qaysi davlat, hech qaysi jamiyat bundan chetda emas. Hozirgi paytda xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga chiqdiki, endi unda

¹ Хошимова Г.И. Фуқароларнинг хукукий маданиятни оширишда хукукий нашрларнинг ўрни ва роли // Евразийский научный журнал. 2016. № 5. – С. 145-149.

harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aqlidrok, fikr hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa aqliy qudratning jismoniy kuchdan ustunlikka erishganidan, endi muammo va ziddiyatlarga qarshi qurol-yarog‘ bilan emas, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashishga, eng asosiysi, milliy ma’naviyatni asrab qolishga e’tiborni kuchaytirish lozimligidan dalolatdir”². Ta’kidlash kerakki, armiyada faoliyat olib borish uchun jismoniy tayyorgarlikning o‘zagina yetarli emas. Bugungi kunda yigitlarimiz eng so‘nggi texnologiyalar va harbiy texnikani mukammal bilishlari kerak. Shuning uchun harbiy tizimda madaniy-ma’naviy va ijtimoiy ishlarni yanada rivojlantirish muhim masala hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarining mudofaaviy ongini shakkantirish jarayonida o‘zbek xalqining milliy ma’naviyatining asosi bo‘lgan mardlik, vatanparvarlik tushunchalarini milliy g‘oya bilan uyg‘unlashtirish lozim. Chunki harbiy xizmatchi butun harbiy faoliyatida vatanparvarlik hamda Vatan oldidagi mas’uliyat hissi bilan yashaydi.

“Vatanparvarlik Vatan oldidagi mas’uliyat, millat mafaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro‘siga hissa qo‘sish, foyda keltirish, fidoiylik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o‘ylash, insonpavar bo‘lish demakdir”³.

Har bir davlatda harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish uchun muayyan harakatlarning to‘g‘ri amalga oshirilishi jamiyat harbiy madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki harbiy xizmatchining shaxsiy sharoiti, ijtimoiy himoya qilinishi jamiyat harbiy madaniyatini rivojlantirishga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomonidan, ular mudofaani rivojlantirish uchun katalizator (jarayonni tezlashtiradigan), boshqa tomonidan, bu boradagi har qanday taraqqiyotga to‘sinqlik qiluvchi omil bo‘lishi mumkin. Katalizator yoki to‘siq bo‘lishi davlat harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirishiga bog‘liq. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining hayotiy ehtiyojlarini to‘liq qondirilmasa, moddiy jihatdan

² Иноятов И.Ю., Абилов М.Х. Ватан химояси—муқаддас бурч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 43.

³ Махкамов У. Ахлоқ—одоб сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 34.

qiyinghilik yuzaga kelsa, harbiy xizmatchilarining o‘zları harbiy madaniyat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, bu yo‘nalishdagi taraqqiyotga to‘sinqlik qilishi mumkin. Bu jarayonlar harbiy madaniyatni jamiyatga moslashtirish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Harbiy ijtimoiy ish harbiy xizmatchilarining qonuniy huquqlarini himoya qilishga, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga, munosib ijtimoiy-huquqiy maqom va ijtimoiy-psixologik farovonlikni ta’minalashga qaratilgan. Shunday ekan, harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha huquqiy hujjatlar tizimi harbiy ijtimoiy ishning huquqiy asosi hisoblanadi.

Harbiy ijtimoiy ishning huquqiy asoslari deganda nima tushuniladi? Harbiy ijtimoiy ishning huquqiy asoslari deganda, harbiy xizmatchilarining asosiyy huquq va erkinliklarini, ularni barcha turdagи nafaqalar, imtiyozlar va kompensatsiyalar bilan qondirishni ta’minalaydigan qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan huquqiy normalar majmuyi tushunilishi mumkin⁴. Maxsus xizmat shartlari va ularni ta’minalash tartibi, shuningdek, ularni amalga oshirish bo‘yicha organlar va mansabdor shaxslarning tegishli majburiyatları, huquqlarini tashkil qiladi. Ta’kidlash joizki, mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingina mamlakatimizda muntazam armiyaning yaratilishi va rivojlanishi bilan Vatanning qurolli himoyachilarining ijtimoiy himoyasini qonunchilik bilan tartibga solish zarurati paydo bo‘ldi. Davlat tomonidan sanksiyalangan urf-odat normalari huquqiy normalarga aylandi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlar tizimida harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishning qonunchilik bazasi muttasil takomillashtirilib, yanada kengroq tarmoqqa aylanib, ijtimoiy himoyaning turli sohalarini qamrab olmoqda va harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasini huquqiy tartibga solishning roli beqiyos ortib bormoqda.

Qonun jamoat roziligining timsolidir, erkinlik, adolat, tenglik tamoyillarini amalga oshirish vositasi sifatida barcha sohalarda, jumladan, harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish sohasida ham maishiy hayot barqarorligini ta’minalashning eng muhim omili hisoblanadi. Hozirgi kunda harbiy xizmatchilarining huquqiy holatini amalga

⁴ Иноятов И.Ю. Ҳарбий хизматнинг маънавий ва хукукий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 56.

oshirishning eng muhim sharti ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlashdir.

Harbiy xizmatchilarni, harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolarni va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan quyidagilarni ta'minlaydi:

- davlat hokimiyati organlari, harbiy tashkilotlar va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan o'z huquqlari, ijtimoiy kafolatlari va kompensatsiyalarini amalga oshirish;

- shaxslarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari va institutlarini takomillashtirish;

- ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, shuningdek, harbiy xizmatning xususiyatiga va uning jamiyatdagi roliga mos keladigan hayot va faoliyat uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar⁵.

Harbiy xizmatchilar uchun huquqiy va ijtimoiy kafolatlari, shu jumladan, ularni huquqiy himoya qilish choralar qonunda nazarda tutilgan moddiy va boshqa qo'llab-quvvatlash turlari me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan bekor qilinishi yoki kamaytirilishi mumkin emas. Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning faol shakllariga quyidagilar kiradi:

- a) vakolatli davlat organlari, harbiy qo'mondonlik va boshqaruva organlari hamda mansabdor shaxslarning harbiy ijtimoiy qonunchilikni amalga oshirishdagi qonuniy faoliyati;

- b) prokuratura, sudlar va boshqa davlat organlarining harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining buzilgan huquqlarini himoya qilish va tiklash bo'yicha huquqni muhofaza qilish faoliyati;

- c) nodavlat tuzilmalarning (jamoat birlashmalari, assotsiatsiyalar, jamg'armalar, huquqni muhofaza qilish tashkilotlari va boshqalar) ushbu fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyati;

- d) harbiy xizmatchilarning o'z huquqlarini himoya qilish, davlat va harbiy hokimiyatlarning, mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan ma'muriy yoki sud tartibida shikoyat qilish bo'yicha faol faoliyati.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning passiv shakllariga quyidagilar kiradi:

⁵ Гребеньков В. Н. Тенденции эволюции военной культуры современного российского общества. – М.: Прогресс, 2006. – С. 87.

a) qonun hujjatlarida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun pul nafaqlari, qo'shimcha to'lovlar va pensiyalar miqdorini, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa turdag'i moddiy ta'minot normalarini, shuningdek, har xil turdag'i moddiy-huquqiy normalarning mavjudligi; imtiyozlar, ijtimoiy kafolatlari va kompensatsiyalar;

b) ushbu moddiy-huquqiy normalarni amalga oshirish mexanizmini qonunchilik bilan mustahkamlash;

c) qonun hujjatlariga harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining buzilgan huquqlarini himoya qilish va tiklash tartibini belgilovchi protsessual qoidalarni kiritish. Ularning mazmuni nuqtayi nazaridan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning asosiy shakllari ijtimoiy kafolatlari, imtiyozlar va kompensatsiyalarga bo'linadi.

"Kafolatlari" tushunchasi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan obyektiv va subyektiv omillar, shartlar va vositalarning yig'indisi sifatida tavsiflanadi. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy huquqlarining asosiy kafolatlari quyidagilardan iborat:

- harbiy xizmatchilar uchun zarur bo'lgan ijtimoiy huquqlar, imtiyozlar va kompensatsiyalarini qonuniy ravishda belgilovchi qonun hujjatlarining mavjudligi;

- harbiy xizmatchilarni, harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolarni va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarini amalga oshirish uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larning yetarligi;

- davlat organlarining mansabdor shaxslarning, komandirlarning ushbu toifadagi fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan majburiyati;

- harbiy xizmatchilarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy huquqlarini buzganlik uchun organlar va mansabdor shaxslarning qonuniy javobgarligi.

Ijtimoiy kafolatlari tizimida asosiy o'rinni huquqiy kafolatlari egallaydi, ular huquq normalarida mavjud bo'lgan shaxsning ijtimoiy huquqlarini himoya qilish vositalari va usullari, shuningdek, davlatning qonuniy faoliyati sifatida tushuniladi. Huquqni muhofaza qilish organlari

va inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari ularni ta'minlashga qaratilgan. Huquqiy kafolatlar tizimi davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabдор shaxslarining harbiy xizmatchilarning mavqeyini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va vositalarni yaratish, ularni yetarli darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik, harbiy xizmatchilarning buzilgan huquqlarini tiklashning qonuniy usullari va vositalardan foydalanish imkoniyati, shu jumladan, sudga murojaat qilish, prokuratura va sudning nazoratini o'z ichiga oladi⁶.

Yakuniy qism. Bugungi kunda harbiy xizmatchilarni himoya qilish, harbiy xizmatchilarning turli toifalari uchun huquqiy ta'limni tashkil etish va o'tkazish, muayyan ijtimoiy-huquqiy muammolarni hal qilish uchun individual yuridik yordam ko'rsatish, komandirlar va boshqa mansabдор shaxslarni ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish bo'yicha rasmiy faoliyatning huquqiy asoslariga o'rgatish zarur. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining arizalarini ko'rib chiqish

⁶ Иноятов И., Ахмедов А. Армия давлат таянчи – тинчлик кафолати. – Тошкент. “Шарқ”, 2004. – Б. 176.

va hal etish, harbiy xizmatchilarni va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorlik va sheriklik faoliyatini muvofiqlashtirish ham bu boradagi muhim masala hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining manfaatlarini to'liqroq hisobga olish, huquqlarini himoya qilish, ular bilan samarali faoliyat yurituvchi ijtimoiy ish institutining faol harakatini talab qiladi. Shundagina harbiy xizmatchilar o'z harbiy burchini yanada faol va qiziqish bilan bajarishlari mumkin bo'ladi. Binobarin, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish bo'yicha faoliyat davlat muassasalari, harbiy idoralar boshliqlari, komandirlar, shtablarlarning majburiy funksiyasiga aylanishi kerak. Hozirda ijtimoiy sharoitlar yuqori darajada yaratilishi va harbiy xizmatchilarning oilalari qonun asosida himoya qilinishi, jangovar shaylikni oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini yuqori darajada saqlash kabi vazifalarini hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳошимова Г.И. Фуқароларнинг хукукий маданиятни оширишда хукукий нашрларнинг ўрни ва роли // Евразийский научный журнал. 2016. № 5. – С. 145-149.
2. Иноятов И., Ахмедов А. Армия давлат таянчи – тинчлик кафолати. – Тошкент. “Шарқ”, 2004. – Б. 176.
3. Иноятов И.Ю., Абилов М.Х. Ватан ҳимояси – мукаддас бурч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 43.
4. Иноятов И.Ю. Ҳарбий хизматнинг маънавий ва хукукий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 56.
5. Маҳкамов У. Ахлок – одоб сабоклари. – Тошкент: Фан, 1994. – Б 34.
6. Гребеньков В.Н. Тенденции эволюции военной культуры современного российского общества. – М.: Прогресс, 2006. – С. 87.

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Razzakova N., Sobirova E.,

Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.